

Abdulla Qahhor – O'zbek Adabiyotining Realist Yozuvchisi

Akbar JUMANOV

Abdulla Kahhar- Özbek Edebiyatının Gerçekçi Yazarı

ORCID: 0009-0003-2079-7918

DOI: 10.5281/zenodo.14574707

OZET

Bu yazıda Özbek edebiyatında eşsiz "kısa öyküler ustası" olan Abdulla Kahhar'ın çalışmaları anlatılmaktadır. Abdulla Kahhar'ın ölümünden sonraki eserlerinin yeni basımı ve "Gençler ile Sohbet" adlı eserin yayınlanmasıyla ilgili bilgilere yer verilmektedir. Yeni yayımlanan kitaplarda, yazarın yeni kitaplarını yayınladıkları ve araştırma olarak inceledikleri için eşi ve öğrencilerinin hizmetleri özel övgüyü hak etmektedir. Bu makale, Sovyet iktidarının zamanındaki haksız şiddeti gözler önüne sermektedir. Özbekistan'ın bağımsızlığından sonra Abdulla Kahhar'ın çalışmalarına devlet düzeyinde dikkat çekildi, hatta Abdulla Kahhar adına Ev Müzesi açıldı, yazarın adı önemli yerlere, okullara, sokaklara verildi.

Anahtar Kelimeler: Abdulla Kahhar, Açık Hakikat, Sovyet Düzeni, Gençlerle Sohbet, Hikâyeler.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida benazir "qisqa hikoyalar usta" si Abdulla Qahhor ijodi bilan tanishish, shuningdek, Abdulla Qahhor vafotidan so'ng asarlarining yangi nashri haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz, qolaversa, "Yoshlar bilan suhbat" asari nashr etilishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz, yang nashrli kitoblarida yozuvchining umr yo'ldoshi, shogirdlarining xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir, chunki ular tomonidan yozuvchining yangi kitoblari nashr etilib, tadqiqot sifatida o'rganiladi. Ushbu maqolada Sovet tuzumi davridagi nohaq zo'ravonliklar tasvirlanadi. O'zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan so'ng abdulla Qahhor ijodiga davlat darajasida e'tibor berilganligi, hatto, Abdulla Qahhor uy muzeyi ochilganligi, yozuvchining nomi muhim joylarga, maktablarga, ko'chalarga berilganligi tasvirlanadi.

Kalit So'Zlar: Abdulla Qahhor, Achchiq Haqiqat, Sovet Tuzumi, *Yoshlar Bilan Suhbat*, Hikoya.

İlgili Yazar: Akbar Jumanov, tadqiqotchi-o'qituvchi,
jumanovakbar574@gmail.com
Jizzakh DPU, Uzbekistan.

Başvuru Tarihi/Received: 28.11.2024
Kabul Tarihi/Accepted: 23.12.2024

KIRISH

Istiqloldan so'ng xalqimizning ko'p asrli boy madaniyati va adabiyotini keng va haqqoniy o'rganishga beqiyos imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, Abdulla Qahhor tavalludining 100 va 110 yilligi munosabati bilan qator asarlari qayta nashr etilishi ma'naviy va adabiy hayotimizdagi muhim bir voqea bo'ldi. O'z davrida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan "Sarob" romani va qissalarining ilmiy-tanqidiy matnlari bilan birga qaytadan nashr etilganligi tanqid va adabiyotshunosligimiz uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.* Oldingi nashrlarida birmuncha qisqartirib bosilgan yoki kiritilmay qolgan qator asarlari ham yangi nashrni tayyorlovchilar va tahririyat tomonidan e'tiborga olinganligi quvonarli holdir. Bu borada yetuk matnshunos-adabiyotshunos Otabek Jo'raboyev, Marhabo Qo'chqorova, Nodira Jalilova va Dildora Rafiqovalarning fidoyiliklarini ham qayd etish lozim. Ularning jonkuyarligi natijasida adibning bundan 55 yil muqaddam mustabid tuzum mafkurasi tomonidan butunlay qoralanib, badnom qilingan "Yoshlar bilan suhbat" asari ham ilk marta arxiv materiallari va qo'lyozmalari asosida alohida nashr etilishi tahsinga loyiqdir.[01;6]

"Insonni jisman yo'qotish mumkin, ammo uni yengib bo'lmaydi" (**Ernest Xemenguey**) degan so'zlarni buyuk adiblarimizga va ularning mumtoz asarlariga nisbatan ham aytish mumkin. Darhaqiqat, "qo'lyozmalar yonmaydi" deganlaridek, hayotiy haqiqat bilan yo'g'rilgan va xalqqa, adabiyot rivojiga xizmat qilishdek ulug' maqsad va ezgu niyatlar bilan yaratilgan asarlar yo'qolmaydi, mahv etilmaydi. O'zining betakror shaxsi, mardona haqgo'yiligi va jasorati, ko'rkam ijodi bilan adabiyotimiz tarixida o'chmas nom qoldirgan realist adib Abdulla Qahhor asarlari bu jihatdan alohida e'tiborga loyiq. Xususan, adibning o'z davrida adabiyotimiz va tanqidchiligimiz saviyasini ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etgan va hukmron sovet mafkurasining zo'ravonlik siyosatiga qarshi bir isyon bo'lib tuyulgan "Yoshlar bilan suhbat" kitobi bugun ham ijtimoiy adolatning yorqin bir dalili va unutilmas sabog'i bo'la oladi.

ASOSIY QISM

Adib vafotidan so'ng zukko matnshunos va tarjimon Kibriyo Qahhorova hamda taniqli adabiyotshunoslar Ozod Sharafiddinov va Matyoqub Qo'shjonovlarning sa'y-harakati bilan 1968-yili chop etilgan "Yoshlar bilan suhbat"* kitobining nashri va bu noyob kitobning ayanchli taqdiridan bugungi minglab yosh kitobxonlarimiz deyarli bexabar deyish mumkin. 30 ming nusxada chop etilgan va adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati, badiiy ijod va mahorat sirlaridan bahs etuvchi bu nodir kitob qahhorona keskin aytilgan fikrlar sababli savdo rastalaridan yig'ishtirib olinib, barchasi uyum-uyum qilib, nashriyot maydonida yoqib yuborilgan.[01;15] Jaholatning chirkin namoyishi bo'lgan bu qabohat sababi haqida buyuk adabiyotshunos, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti" nomli asarida shikasta xotiralarni o'qiymiz:"1967-yil. Sentyabr oyining so'lim oqshomlaridan biri. Alisher Navoiy nomidagi teatr. Adibning 60 yillik to'yi nishonlanmoqda...Zalni liq to'ldirgan odamlar Abdulla Qahhorning nutqini kutishyapti. Nihoyat, unga so'z berildi... Nutq juda qisqa edi, lekin shu qisqa nutq zalda bo'ron yasadi. Ko'p o'tmay, bu bo'ron shaharga, viloyatga, butun respublikaga yoyildi. O'shanda adib nima degan ediki, bu gaplar hammani bu qadar larzaga solgan edi. **"Men partiyaning soldati emas, ongli a'zosiman!"** Bu gap zalda bombaday portladi. Qizig'i shundaki, uning Toshkentning qoq o'rtasida kechasi aytgan

gapi yarim soatda Moskvaga- Markaziy Komitetga va boshqa tashkilotlarga yetgan edi. O'sha kezlarda va undan keyin ham butun Sovet Ittifoqida boshqa bironta yozuvchi buyruqni so'zsiz bajaradigan itoatkor soldat bo'lish g'oyasiga qarshi lom-lim degani yo'q. Abdulla Qahhor o'sha nutqida, aslida, inson erkini, inson aqlini himoya qilib hayqirgan, inson ustidan zo'rvonlik qilishga qarshi norozilik bildirgan edi...Abdulla Qahhor bu nutqidan keyin umrining oxirigacha va vafotidan keyin ham anchagacha ta'na-dashnomlardan qutulmadi..."[02;420] Bu achchiq haqiqatga qo'shimcha qilib aytish lozimki, hukmron kommunistik firqaning ulug' adib ijodi va shaxsiga nisbatan adolatsizligi shu bilangina tugagani yo'q. Adabiyotimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan xalq yozuvchisining ijodini o'rganish ancha yillar deyarli taqiqlab qo'yildi va adibning 70-75 yilliklari ham munosib nishonlanmadi, hatto adibga yaqin bo'lgan talantli shoir-yozuvchilar va adabiyotshunoslar ham u yoki bu yo'llar bilan tazyiqqa duchor qilindi. Aslida, bu nohaqliklarning tub sababi- Abdulla Qahhorning haqgo'yiligi va o'ziga xos ijodiy jasorati bilan bog'liq ediki, ko'p yoshlarimiz bu haqiqatni endi anglab yetmoqda.

Yoxud A.Qahhorning 1956-yili O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasining Plenumida so'zlagan tarixiy nutqi hamda O'zbekiston Fanlar Akademiyasida Abdulla Qodiriyga bag'ishlangan yig'indagi (1964) ma'ruzasi qanchalik jiddiy ahamiyat kasb etganligi ham endilikda ayon bo'lmoqda. Qahhorning mantiqan boy, samimiyat to'la nutqlari nohaq qoralangan va stalincha mash'um siyosatning qurboni bo'lgan adiblarimizning hayoti va ijodini o'rganish va ular merosini xalqqa qaytarishdek dolzarb ishga botin olmay turgan ko'plab diyonatli olim va tadqiqotchilar uchun kuchli bir ma'naviy- ruhiy dalda bo'lganligi tarixiy haqiqatdir* O'zini adabiyotimizning "sergak posboni" deb bilgan Abdulla Qahhor kabi jasoratli adiblarimizning bunday yorqin nutq va maqolalari nafaqat badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida, balki butun ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotimizda ham ulkan voqea bo'lganligi bilan ibratlidir. Adibning "Yoshlar bilan suhbat" asaridagi maqola, taqriz va qaydlarni ham o'qir ekanmiz, shunday bir xulosaga kelamiz: Adabiyot va ma'naviy hayotimizning bironta dolzarb muammosi yo'qki, u haqda Abdulla Qahhor o'z so'zini aytmagan bo'lsin. Chunonchi, adabiyotimiz kelajagi va uni yaratuvchi talantli yoshlar haqida g'amxo'rlik, badiiy ijod taraqqiyotining muhim omili bo'lgan mumtoz yozuvchilarning asarlarini qunt bilan o'rganish, ularning go'zallik "sir"larini kashf etish, milliylik va baynalmilallik, badiiy til muammolari. Yoxud ijod jarayoni, ijodkor shaxsi, ma'naviy qiyofasi, tanqid va adabiyotshunosligimizda mahorat masalalarining o'rganilishi... Ko'rinadiki, adabiy-tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi va Qahhor uchun ham g'oyat ahamiyatli bo'lgan muammolarni loaqal sanab ko'rsatish uchun ham butun bir sahifa yetmaydi. Shuning uchun bu o'rinda ana shu muhim muammolardan ayrimlari haqida-ushbu yangi nashrda ham ancha keng yoritilgan mavzu –A.Qahhorning ijodkor yoshlarga munosabati xususida va adibning yon daftarlari borasida muxtasar fikr yuritiladi.

Abdulla Qahhor ijodi va shaxsini ozmi-ko'pmi o'rgangan va xususan, adib shogirdlari va zamondoshlarining yorqin xotiralari bilan yaqindan tanishgan kishi shunday bir xulosaga kelishi tabiiy: hozirgi zamon o'zbek adabiyotimizda iste'dodli yoshlar tarbiyasiga Abdulla Qahhorchalik mehnati ko'p singgan, yoshlar ijodi va ma'naviy intellektual saviyasini Qahhor darajasida chuqur o'rgangan va ularga bu qadar kuchli ta'sir o'tkaza olgan yirik san'atkor o'tmagan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shukur Xolmirzayev havas va hayrat bilan aytganidek, adib bu jihatdan "istisno shaxs" edi. Adabiyot maydoniga kirib kelayotgan va "qalamni shuhrat yoki boshqa narsa ta'ma qilib emas,

balki qalbidagi muhabbat va nafrat olovini olamga sochish" uchun olgan hech bir yosh ijodkor Abdulla Qahhorning o'tkir nigohidan chetda qolmas edi. Dastlabki asarlari bilanoq ustoz adib nazariga tushgan, undan ruhiy madad olgan va endilikda o'zlari ham ijodiy kamolot darajasiga ko'tarilib, adabiyotimizning zalvorli yukini o'z zimmalariga olgan yetuk ijodkorlarimiz ozmuncha emas. Qahhorning bu boradagi ibratli faoliyati adabiyotimiz rivoji uchun naqadar katta ahamiyatga ega bo'lganligi va adib o'zining butun ijodi va mazmunli umri bilan yoshlarga qanday munosabatda bo'lish sabog'ini qoldirganligi, ayniqsa, Erkin Vohidovning "Qarzdorlik" nomli xotirasida ajib bir teranlik bilan ifodalangan: "Abdulla Qahhor biz endi adabiyotga qadam qo'ygan davr muhitining markazida turgan shaxs edi, yoshlarga alohida e'tiborli, iste'dodni ilg'ash qobiliyati benihoya kuchli ustoz edi. Said Ahmad, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, O. Yoqubov, P.Qodirov, O'.Umarbekov, A.Oripov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, U.Nazarov singari yozuvchilarning ijodiy taqdirida A.Qahhorning ustozlik o'rni bor. Ustozning menga, so'ngra A.Oripovga ko'rsatgan xayrixohligi biz uchun o'ziga xos yashinqaytargichday bo'lgani sir emas".[03;239]

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik A.Qahhorning tabiatiga xos bo'lgan fazilatlardan edi. Bu haqda adibning o'zi yon daftarida shunday deydi:"Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, birinchi asari bilan yashnab kiradi...Men adabiyot muhibiman, shuning uchun adabiyotga yashnab kirgan yoshlarni ko'rib quvonib ketaman, quvonchimni o'sha yoshning o'ziga izhor qilib aytaman.Bu yashnagan cho'g'ni yelpish demakdir".[04;470] "Adabiyot muhibi"- qahhorona kamtarinlik bilan aytilgan oddiygina ibora. Lekin shu oddiy so'zlar zamirida qanchalar mas'uliyat va jo'mardlik (T.Adashboev) mujassam. Abdulla Qahhorning iste'dodli yoshlarga ko'rsatgan mehr-e'tibori haqida o'ylaganda, beixtiyor benazir siymo, adabiyot va ilmu fazl ahliga tengsiz homiy Navoiy bilan ulug' adib Maksim Gorkiy yodimizga keladi. K.Fedinning guvohlik berishicha, har bir yosh iste'dodning adabiyot maydoniga kirib kelishi M.Gorkiy shu qadar quvontirar ekanki, u o'sha "yosh ijodkorning yo'lga bamisoli poyonoz bo'lib to'shalgisi kelar, toki u ortiqcha mashaqqat va to'siqlarga behuda kuch sarf qilmay ijodning yuksak cho'qqilari tomon tezroq ko'tarila olsin",- der ekan. Darhaqiqat, talantni- xalqning bebaho mulki deb bilgan Abdulla Qahhorning iste'dodli yoshlarga g'amxo'rlik va homiyligi ham hayratangiz edi.

Zotan, uning adabiyotga va ijod ahliga jonkuyarligi, ayniqsa, iste'doli yoshlarga talabchan murabbiyligi, eng avvalo, bu ulkan ijodkor qalbining oliyhimmatliligi va oliyjanobliligi bilan, adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqi yo'lidagi fidoiy jonkuyarligi va masuliyati bilan izohlanadi. Qahhorning yoshlar haqidagi maqola va nutqlari dastavval shunisi bilan diqqatga molikki, ularda ko'plab yosh shoir va yozuvchilar ijodiga xos bo'lgan eng muhim fazilatlar nuktadonlik bilan e'tirof etilar hamda ularning asarlaridagi nuqsonlar va ijodiy o'sishiga xalaqit berayotgan muammolar ham aniq-tiniq ko'ratib berilar edi. Shu jihatlari bilan ular tanqid va adabiyotshunosligimizda yosh iste'dodlar ijodi haqida yaratilajak tadqiqot larning yorqin bir sahifasi bo'lib qolishi shubhasiz.

Abdulla Qahhor adabiy yoshlarning asarlarini o'ziga xos sinchikovlik va talabchanlik bilan muttasil kuzatib va tahlil etib borar ekan, ularning ijodiy imkoniyatlari va intellektual salohiyatlarini yuksak qadrlar edi. Xususan, ustozning 1965-yili yosh ijodkorlar bilan o'tkazgan suhbat adabiyotimiz va

tanqidchiligimiz tarixida ham unutilmas uchrashuvlardan bo'lib qolishini o'shanda hamma ham birdek tasavvur etolmagan bo'lsa kerak. "Hozirgi adabiyotimiz,- degan edi Qahhor o'sha suhbatda,- naqadar yaxshi, naqadar katta bo'lmasin, kelajakda yaratiladigan buyuk o'zbek adabiyotining poydevori, faqat poydevori bo'lib qoladi. Men nima uchun ertaga buyuk adabiyot yaratilishiga, bu adabiyotni hozirgi yoshlar yaratishiga aminman? Men hozirgi yoshlarni o'zimning yoshligimga, bularning dastlabki asarlarini o'zimning dastlabki asarlarimga qiyos qilib, shunday ishonch paydo qildim"[05; 29]

Hayot Abdulla Qahhorning bashoratini ro'yobga chiqardi- bugungi kunda, eng avvalo, Istiqlol sharofati bilan o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi ham g'oyaviy, ham badiiy-estetik saviyasi jihatidan yangi bir bosqichga ko'tarildi. Shu munosabat bilan Abdulla Qahhor uy-muzeyida o'tkazilgan an'anaviy xotirlash kechalaridan birida aytilgan muhim bir haqiqatni alohida ta'kidlash lozim. Taniqli adiblar va akademiklarimiz A.Qayumov, B.Nazarov, N.Karimovlar hamda ustozlar U.Normatov, I.G'afurov bilan birga X.Do'stmuhammad, S.Umirov, A.Meliboev, Q.Yo'ldoshev, Sh.Rizaev, R.Qo'chqorov va Farg'onadan Y.Solijonov, Gulistondan U.O'ljaboev, U.Qosimov singari adabiyotshunoslar qatnashgan o'sha anjumanda sharqona lutf va minnatdorlik bilan tarixiy bir voqea e'tirof etilgan edi. Ya'ni Istiqlol davrida adabiyotga munosabat tubdan o'zgardi, ijod ahliga ishonch-e'tibor va g'amxo'rlik har qachongidan ortdi. Buning yorqin dalili- bir necha zabardast ijodkorlarimiz- Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov va keyinroq To'lapbergen Qayipbergenovlar Vatanimizning yuksak mukofoti- O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. Quvonchli tomoni yana shundaki, ularning barchasi Qahhorning mehr- shafosatidan va unutilmas saboq laridan bahramand bo'lganlar. Shu boisdan ham biz bugun ustozimiz Abdulla Qahhorni to'rt marta adabiyotimiz Qahramoni bo'ldi,- deb e'zozlaymiz. Bu- kecha qatnashchilari tomonidan yakdillik bilan aytilgan samimiy va adolatli e'tirof edi! Qodiriy va Qahhor ijodi va ustoz sifatidagi yorqin faoliyati shu qadar samarali va istiqbolliki, bu bahramandlik, taniqli adib Primqul Qodirov to'g'ri ta'kidlaganidek, keyingi avlodlar qalbi va ijodida yanada ravnaq topmoqda. Birgina misol: Isajon Sultonning "Hazrati Xizr izidan" hikoyasi nufuzli tanlovda yuksak baholanishi bunga dalil.

Abdulla Qahhorning qayta nashr etilgan "Yoshlar bilan suhbat" asari va uning o'ziga xos yon daftarlaridagi teran g'oya va fikrlar ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Badiiy ijod jarayonini o'rganishda yozuvchining yon daftarlari ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yozuvchining ijod jarayonini kuzatish, ayrim asarlarining yaratilish tarixini o'rganishda yon daftar isho nchli manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ko'pgina adiblar kabi Abdulla Qahhor ham ijodining dastlabki paytlaridan boshlab yon daftar tutgan. Uning yon daftar tutish va undan foydalanish usullari ko'p jihatdan A.P.Chexov uslubini eslatadi. Baharhol, Qahhorning o'zi ham yon daftar haqida so'z borganda, ko'pincha «Chexov qo'yin daftar tutgan. Men ham qo'yin daftar tutaman», deb kamtarlik bilan ran boshlashi bejiz emasdi. Yozuvchi ijodiy biografiyasiga taalluqli bir necha nuqtalar borki, ular Qahhorning A.P.Chexov ijodi bilan chuqur tanishmasdan oldinroq, ya'ni 1936-yildan avval ham bunday daftar tutganligidan darak beradi. Mana shunday dalillardan biri: «Men «Anor» degan hikoyani yozganimda boshqorong'i xotinning holatini shu kunlarda mushohada qilganim yo'q. Boshqorong'i xotinning holati mening xotira daftarimda bor edi. Buni

men bir vaqtlar daftarga shunday qayd qulib qo'yg'an ekanman: «Er xotiniga jannatning ta'rifini qiladi. Xotinning ko'ziga havzi kavsar va unda suzib yurgan baliqdan boshqa hech narsa ko'rinmaydi. Xotin baliqqa boshqorong'i» [06;365] Ma'lumki, «Anor» 1936-yili yozilgan. Keltirilgan qaydning yozuvchi yon daftariga ancha ilgari tushiri lganligi yukoridagi fikrimizni asoslaydi. Yon daftarni, odatda xotira daftar deb ham yuritishadi. Chunki xotira daftar deyish orqali, bizningcha, yon daftarning xarakterli bir xususiyati- uning yozuvchi mehnati va ijodiy laboratoriyasining uzviy bir qismi ekanligi ta'kidlanadi. Bu jihatdan A.Qahhor yoshlar seminarida so'zlagan nutqidagi bir fikri muhim: «Odatda, mushohada faqat kerak bo'lganda, biron asar yozish uchun zarur bo'lib qolgandagina qilinmaydi. Masalan, birovning oyog'ini tramvay bosdi. Ehtimol, mening qahramonlarimdan, personajlarimdan hech kimning oyog'ini tramvay bosmas. Lekin oyog'ini tramvay bosgan odamning o'sha damdagi holati, harakati, qiyofasi esimda qolishi kerak» [06;364]

Tabiiyki, inson xofizasi qanchalik kuchli, mustahkam bo'lmasin, u turmushda uchraydigan barcha muhim va nomuhim voqea-hodisalarni, ko'plab fakt va raqamlarni uzoq vaqt saqlab qolishi mumkin emas. Shunday bo'lgach, yozuvchi xotirasidan tashqari yana qandaydir yordamchi bir vositaga ehtiyoj sezadi. Ijodkor uchun yon daftar tutish zaruratining yana bir sabab bor. Odatda, yozuvchi atrofidagi voqea-hodisalarga hech qachon befarq qaramaydi, aksincha, u ko'p hollarda hayotga alohida bir qiziqish va sinchikovlik bilan, ya'ni yozmoqchi bo'lib yurgan asari nuqtai nazaridan ham faol munosabatda bo'ladi. Hayot voqea-hodisalariga mana shunday manfaatdorlik bilan qarash natijasida yozuvchi mo'ljallab yupgan asari uchun kerak bo'ladigan ko'pgina «ashyolar»ga duch kelishi mumkinki, bunday kezlarda ham aksariyat adiblar u yoki bu tarzda ularni yoi daftarlariga tushirishadi. Chunonchi, A.Qahhorning yon daftarlari haqidagi quyidagi so'zlari ham bizni shunday xulosaga olib keladi: "Men ikkita yon daftar tutaman: biri umumiy daftar bo'lib, bunga ayrim so'zlar, iboralar, tasvirlar, syujetlar, faktlar, turli-tuman voqea va hodisalarni yozib boraman, asar yozgan vaqtimda shulardan foydalanaman. Ikkinchi daftar ayrim asarga doir bo'lib, bunga shu asarga tegishli nima narsa esga kelsa, shuni yozib boraman: detallar, qahramon va personajlarning so'zlari, xarakterlarga oid gaplar..."

Shu tariqa yozuvchining xotira daftari, Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, mushohadalar xazinasini o'ziga xos, mo'ljaz "turmush qomusi" vujudga keladi. Haqiqatan ham, A.Qahhorning yon daftarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularning rang-barang hayotiy mushohadalarga, ajoyib fikrlar, lavha va kuzatishlarga, ixcham iboralar hamda qaydlarga boy ekanligiga guvoh bo'lamiz. Muhimi yana shundaki, Qahhor bu "zahira-boylik"larni hamisha badiiylik talablariga muvofiq tarzda ishlatadi. Shu sababli ham ular asarda shunchaki chiroyli bir quroqqa o'xshab qolmay, asar mazmuni va ruhiga butunlay singib ketadi. A.Qahhorning bunday san'atkorligini usta bog'bonning payvand qilish usuliga o'xshatsa bo'ladi. Qahhorning yon daftarlari haqida fikr yuritilar ekan, albatta, uning «Dahshat» nomli hikoyasining ijodiy tarixiga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Hikoyaning, dastlabki «urug'i» yozuvchining xotira daftariga qadalgan. «Hikoya haqida Abdulla Qahhor birinchi marta daftariga 1952-yilda qayd qilgan. O'sha yili Abdulla Qahhor Farg'onaga sayohat qiladi va har xil suhbatlarda turli hikoyalarni eshitadi... U rivoyatlardan birini «Xonning epmagi» degan sarlavha ostiga shunday qayd qilgan: «Shamol. Go'riston. Maymun. Arvoh. Shamol kechasi kolxoz mehmonxonasida 102 yashar chol bilan suhbat. (Cholning o'g'li Sovet Ittifoqi

Qahramoni) O'lgan dovyurak- cholning akasi...» Aftidan, chol bu rivoyatni bo'lgan voqea tariqasida aytib bergan. Uning rivoyat yoki bo'lgan voqealigidan qat'iy nazar, eshitgan odam qiziqligiga bir ajablanadi-yu, xotirasida saqlanayotgan yuzlab boshqa rivoyatlar yoniga tirkab qo'yadi, Abdulla Qahhor esa ana shu anchayin rivoyat yoxud hayot hodisasidan haqiqat nuqrasini chiqarish uchun uni yillar davomida o'ylaydi, pishitadi...» Nihoyat, oradan o'n yil o'tgach, yozuvchining "Dahshat" nomli hikoyasi, U.Normatov va boshqa tanqidchilar tomonidan o'tmish haqidagi hikoyalarning gultoji, deb yakdillik bilan tan olingan etuk bir asar vujudga keladi. Bu hikoya "o'tmish haqidagina emasligi, balki adib hayotidagi burilish pallasini, uning shu davrdagi ruhiyatini ham o'zida aks ettirgan" teran asar ekanligi hassos adabiyotshunos Dilmurod Quronov tomonidan ham to'g'ri qayd etilgan: "So'z XX asr o'zbek adabiyoti haqida boradimi, milliy nasrimiz taraqqiyoti haqidami, hikoya janri yo mahorat masalalari haqidami, qat'iy nazar, "Dahshat"ning albatta tilga olinishi, uning turfa talqinlarga dosh va imkon berib kelayotganligining siri ham shunda- ilhom bilan yozilganidadir"* Xuddi shuningdek, taniqli adabiyotshunos Hamidulla Boltaboevning Qahhor hikoyalari ga struktural yondoshuvi ham shu jihatdan e'tiborga loyiqqligini qayd etish o'rinli bo'ladi.* Ko'rinadiki, yon daftarga yozilgan dastlabki bir necha jumla butun bir badiiy asarnin yaratilishida muhim bir asos bo'lib xizmat qilgan va ma'lum darajada hikoya uchun turtki hamda eskiz vazifasini ham o'tagan. Faqat shugina emas, yon daftardagi qayd qanchalik qisqa bo'lmasin, biz uni asarning dastlabki kurtagi, deya olamiz. Chunki unda hikoyada kuchli mazmun va fojeona rux ifodalanishiga ishora aniq sezilib turibdi. Bu fakt ham yuqoridagi misollar bilan birgalikda yon daftarning badiiy ijodda muhim vosita bo'lib xizmat qilishini hamda adibning yon daftardan foydalanish mahoratini- bamisoli oddiy bir uchqundan alanga paydo qila olishdek san'atini ham namoyish etadi. Qahhorning yon daftarlardagi qayd va yozuvlar ko'pincha asarga u yoki bu darajada o'zgartirilgan holda kiritiladi. Yana yozuvchining "Anor" hikoyasiga qaytaylik. Garchand, yon daftarga ayolning baliqqa bo'lgan tabiiy ehtiyoji bilvn bog'liq holat qayd etilgan bo'lsa-da, hikoyada mazkur detal anor bilan almashtiriladi. Bu o'zgarish shu bilan izohlanadiki, anorning boshqa mevalar ichida tanqisligi va qimmatligi asarning g'oyaviy mazmuniga juda mos keladi. Keyin esa anor orqali hikoyaning milliy ruhi, undagi vaziyat va voqealarning istisno holat emasligi ham yanada chuqurlashtirilgan. Sanatkor ijodiy laboratoriyasida yuz beruvchi bunday holatlar yon daftarning yozuvchi mehnati jarayonidagi ilk bosqich- pillapoya bo'la olishini ko'rsatib turadi.

Abdulla Qahhor yon daftarlarning yana bir qimmatli tomoni bor: ular yozuvchining adabiy - tanqidiy maqolalari bilan birgalikda adabiyotshunosligimiz rivojida ham salmoqli o'rin tutadi. Ulardagi bevosita adabiyot va san'at, badiiy ijodva adabiy tanqidchilikka doir fikrlar ning g'oyat chuqur va originalligiga tahsin o'qimay iloj yo'q. «Kishining bir g'oyaga sadoqati tanlagan kasb~hunari bilan, shu g'oyaga qay darajada yaxshi va ko'proq xizmat qilgani, qilayotgani bilan o'lchanadi» «Tanqid borki, tomog'ingdan ilikday o'tadi, tanqid borki, bir bog' yantoq yutganday bo'lasan"[07;39] Abdulla Qahhorning adabiy-estetik dasturini belgilaydigan "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas", degan mashhur so'zlarini ko'pchilik yod biladi. Aslida, jahon adabiy-estetik tafakkurida ham munosib o'rin tutuvchi bunday qim matli fikrlar uchun ham biz yozuvchining yon daftarlarni ko'proq qadrlashimiz va o'rganishimiz lozim. Shuningdek, yon daftarlarda Qahhorning tanqid-adabiyotshunoslikning bir qator muhim masalalariga munosabati ham muayyan darajada o'z ifodasini topganki, bu yon daftarlarning

umumiy adabiy jarayonning ham tarkibiy bir qismi deb qarashga imkon beradi.

O'zining betakror kundaliklari bilan tanilgan rus adibi Mixail Prishvin ularning g'oyaviy- badiiy mazmuni va uslubi haqida fikr yuritib, jumladan, shunday deydi: "Kundaliklarimdagi bitiklarning yaxshi va ma'nodor bo'lishiga erishish- mening uchun muqaddas bir burch edi".[11;479] Abdulla Qahhor ham yon daftarlaridagi qaydlariga ana shunday yuksak talabchanlik bilan yondoshgan. Adibning besh tomlikdagi va ayniqsa, yangi materiallar bilan boyitilgan "Yoshlar bilan suhbat"ning qayta nashridagi "Yon daftarlardan" ruknida berilgan qayd-fikrlar mavzui va mazmuni jihatidan rang-barang. Lekin ularning deyarli barchasi uchun umumiy bo'lgan bir xususiyat ham bor. Bu xususiyat shuki, ular yozuvchining nutqlari va aksariyat badiiy asarlari kabi nihoyatda qisqa, sodda va tagdor. Shu bilan birga ularda Qahhorning o'ziga xos hazilga moyil uslubi, hajviy ohangi ham sezilib turadi. Bir misol: "Qizni o'shanga bergandan ko'ra keliga solib tuygan yaxshiroq!" Yoki: "Adabiyot- hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi". Ushbu fikr buyuk rus adibi Lev Tolstoyning "Yozuvchilikni kasb qilib olish kerak emas. Buning o'rniga dehqonchilik yoki etikdo'zlik qilish yoki bo'lmasa boshqa biror yumush bilan kun ko'rish lozim, lekin asarni faqat yozmasdan chidab turolmaydigan paytdagina yozish kerak",[13,21]-degan dono so'zlarini eslatadi. Odatda, xalq donishmandligi bilan yo'g'rilgan quvnoq latifa va hazil- mutoyiba larni ko'pincha "mitti haqiqatlar" deb ham yuritishadi. Biznigcha, Abdulla Qahhorning yon daftarlaridagi ixcham va ma'nodor qaydlariga nisbatan ham ana shu ta'rifni qo'llash o'rinli bo'lsa kerak. Shuni ham ta'kidlash lozimki, Qahhor faqat badiiy asarlari tilidagina emas, balki yon daftarlaridagi fikr larning ham ixcham va obrazli bo'lishiga jiddiy e'tibor bergan. Birgina misol: 1967 yili "Guliston" jurnali sahifasida Abdulla Qahhorning yon daftaridan quyidagi bir parcha e'lon qilingan edi: "Yozuvchining raqqosadan farqi shuki, raqqosa qarigan sari suyaklari shiqillab, raqsga yaramay qoladi, yozuvchi esa qarigan sayin mahorati to'li shadi". Iqtibosdagi "raqqosa" va "qarigan sari" so'zlarining takrorlanib kelishi dan qat'i nazar, hech kimda e'tiroz uyg'otmay dikan bu qayd negadir Qahhorni qoniqtirmaydi. Yozuvchi bu fikrni davom ettiradi va natijada yanada umumlashgan va obrazlashgan namunasi yuzaga keladi: "Ko'pgina hunarmandlar qariganda suygan hunaridan mahrum bo'ladi: ulochi ot chopolmaydi, surnaychi yaxshi puflo olmaydi, o'yinchi oyog'ini ko'tarolmay qoladi. Yozuvchi dutor yoki vinoga o'xshaydi-eskorgan sayin ochiladi, quvvati oshadi"[06;23]

Bunday misollar shuni ko'rsatadiki, yon daftarlar yozuvchiga bamisoli rassomning eskiz varaqlaridek mashq qilish imkoniyatini ham beradi. Shu bilan birga butun ijodi davomida yuritilgan yon daftarlar adib fikri va qarashlarining tadrijiy o'sishi va boyishni ham ma'lum darajada aks ettira olishi ham ayon bo'ladi. Yon daftarlarning ijoddagi ahamiyati shular bilangina cheklanmaydi, shubhasiz, ular yozuvchining kuzatuvchanlik faoliyatini oshiradi, mushohadakorlik va qiziqish olamini kengaytiradi, eng muhimi, uning ijodkor sifatida shakllanishiga yordam beradi. Binobarin, jahon adabiyotiga nazar tashlasak, juda ko'p buyuk adiblar, jumladan, N.V.Gogol, F.M.Dostoevskiy, O.Balzak, L.N.Tolstoy, A.Blok kabi mashhur so'z san'atkorlari ham yon daftar yuritganligiga guvoh bo'lamiz. Yoki Gorkiyning yosh yozuvchi A.Makarenkoga "Yon daftar tutib, unga muntazam ravishda xarakterli fikr va faktlarni, so'z o'yini, aforizm va qiziqarli ibora-so'zlarni yozib borish"ni maslahat berganligi ham bejiz emas. Biroq ayrim ijodkorlar, chunonchi, taniqli

yoʻzuvchi K.Paustovskiy yon daf tar haqida salbiy fikr bildirib, "Yon daftar deyarli foyda bermaydi. Men qachon yon daftardan biron qiziqarliroq narsani olib, qissa yo hikoyamga kiritsam, albatta, o'sha parcha xira, nursiz bo'lib chiqadi",- deb yozgan edi.[14;388]

Albatta, bu fakt, asosan, K.Paustovskiyning ish tartibi, shaxsiy hayot tajribasi va uning ijodiy manera va uslubi bilan izohlanishi lozim. Asqad Muxtor "Tundaliklari", O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"i ham yon daftarlar va kundaliklarning badiiy ijod va adabiy estetik tafakkur rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shiladiki, bular ham A.Qahhor ijodiy an'alarining bardavomligidan guvohlik beradi. Abdulla Qahhorning "Yoshlar bilan suhbat"dagi nafaqat adabiy- tanqidiy maqolalar, balki xalq hayotining muhim muammolarini haqqoniy yoritgan maqola va suhbatlar ham bugungi o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Qahhor "Yozuvchi kelajakning maxsus muxbiri" bo'lishi kerak degan yuksak mas'uliyat bilan ijod qilganligini "Yoshlar bilan suhbat" dagi ko'plab maqola va nutqlari ham yaqqol ko'rsatib turadi. Bundan 50-60 yillar ilgari katta tashvish bilan yozilgan "To'ylar muborak" maqolasi ham adibning kelajakni oldindan ko'ra bilishi va yirik mutafakkirlarga xos bashoratgo'yligidan yorqin dalolatdir.

Xulosa o'rnida shuni ham aytish joizki, adabiyot olamiga kirib kelayotgan boshlovchi ijodkorlar uchun o'ziga xos bir dasturilamal bo'la oladigan ushbu asar atigi 300 nusxada bosilgan. Anchayin o'rtamiyona ijodkorlarning, hatto havaskor qalamkashlarning kitob-risolalari minglab nusxada chop etilayotgan bugungi kunda Abdulla Qahhorday ustoz adibning nodir asari keng kitobxonlar qo'lga yetib bormasa, undagi qimmatli hayotiy hikmatlar va badiiy mahorat saboqlaridan ko'plar bebahra qolsa... Bu xayrli ishni balki Yozuvchilar uyushmasidagi mutasaddilar ham o'ylab ko'rishsa shoyad...

Abdulla Qahhor hayoti va ijodini, ayniqsa, uning shaxsi, fe'l-atvori, ijod jarayoni va va asarlarining yaratilish tarixini o'rganishda adibning rafiqasi Kibriyo Qahhorovanning xotiralari eng ishonchli va qimmatli manba bo'lib sanaladi. Shu bois ushbu xotiralarning ayrim lavhalarini keltirib o'tish maqadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Abdulla Qahhor va Kibriyo opalar hayotini yaqindan bilgan, ularning shaxsi va ijodini chuqur o'rgangan adabiyotshunoslar ularning 1944-yildagi ilk uchrashuvini ham tasodifiy emas, balki Yaratganning xohish-irodasi bilan muqarrar ro'y bergan ilohiy bir tuhfa-in'omi sifatida talqin etadiki, bu baxtli ijobat lahzalari ham "ilmi g'ayb" bilan izohlansa kerak. "Nazarimda,- deb yozadi Ozod Sharafiddinov o'z esdaliklarida,-taqdir birlarini Qo'qonda, ikkinchilarini Samarqandda yulduzlarini bir-biriga to'g'rilab yaratgan- u, "qani boringlar, bir-birlaringni topib olinglar", degandek, hayotning katta yo'lga solib yuborgan. Ular bir-birlarini topgunga qadar hayotning past-baland yo'llarida ancha ovorai sargardon kezishgan, ozmi-ko'pmi qiyinchilik ko'rishgan, turmushning achchiq-chuchugini tatishgan. Hatto ikkovlari ham oilaviy turmush nima ekanini sinab ko'rishgan..."[08;56]

Darhaqiqat, Abdulla Qahhor bilan Kibriyoxonim dastlabki uchrashuvidanoq ular go'yo bir-birlari uchun yaratilgandek, bir-birlari uchun qanchalar kerakli va qadrli ekanligini, bir so'z blan aytganda, mushtoq ko'ngillari qanchalar mos ekanligini butun vujudi va botiniy nigohlari bilan his etgan

bo'lsalar ne ajab! Jahon adabiyoti tarixidan bizga ma'lumki, ko'pgina mashhur san'atkorlarga turli sabablarga ko'ra to'kis oilaviy baxt-u ro'shnolik nasib etmagan. Xususan, ayrim talantli shoir va yozuvchilarning oilaviy baxtsizligidan tashvish chekkan Maksim Gorkiy bu fojeaning jamiyatga va adabiyotga qanchalar jiddiy zarar yetkazganligini taassuf bilan ta'kidlagani bejiz emas. Hatto Lev Tolstoydek daho yozuvchi bilan uning ayoli Sofya Andreevna qancha yillar birga umrguzaronlik qilgan va bir nechta farzandlar ko'rib ularni voyaga yetkazishgan bo'lsalar- da, ular o'rtasida mushtarak bir e'tiqod yoxud g'oyaviy maslakdoshlik u yoqda tursin, ba'zan o'zaro bir-birlarini tushunish, hamfikrlilik ham yetishmaganligi- achchiq haqiqat. Tolstoydek dunyoga mashhur adibning umri oxirida uyidan bosh olib chiqib ketganligi va xastalanib, chekka bir temiryo'l bekatida g'aribona holda hayotdan ko'z yumganligining sabablaridan biri ham- mana shu ruhiy va ma'naviy jihatdan yolg'izlik bo'lsa kerak.[08;78]

Ne baxtki, Abdulla Qahhor bilan Kibriyoxonimning pokiza imon-e'tiqodida ham, adabiyotni qanchalar muqaddas bilishi va unga cheksiz sadoqatida ham, yuksak did, fikr va qarashlarida ham, qolaversa, do'st-u shogirdlar iga mehr-u oqibatida ham ajib mushtaraklik yaqqol namoyon edi. Binobarin, ham ruhan, ham ma'nan yakdil bo'lgan bu ikki ulug' siymoning serfayz-totuv hayoti va samarali ijodiy faoliyati bilan chuqurroq tanishgan va ularning samimiyat va milliylikka yo'g'rilgan fasohatli so'z va xotiralarini havas va hayajon bilan o'qigan kitobxon shunday bir xulosaga kelishi tabiiy: Sharqona tarbiyali yetuk ota-onalar o'z farzandi jigabandini qanchalik mehr-muhabbat bilan ulg'aytirsam, Kibriyo opa ham Abdulla Qahhorga shunchalik mehr-u shafolat va g'amxo'rlik ko'rsatgan va uni cheksiz fidoyilik bilan beqiyos ardoqlagan edi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Abdulla Qahhor umrining so'nggi og'ir kunlarini O'zbekistonimizdan yiroqda- Moskva shahridagi kasalxonada o'tkazgan. Kibriyo opa har doimgidek, kecha-yu kunduz yonlarida, bir daqiqa ham oldilaridan jilmaydi, o'lim bilan mardona kurashayotgan adibimizga tasalli berib, dardini yengillatishga urinadi. Qalami va haqgo'yiligi bilan el-yurtga xizmat qilishdek sharaflilik burchiga bir umr sodiq bo'lgan Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasida insonning hayotga va yashashga bo'lgan so'nmas mehr va ishtiyoqi, metindek mustahkam irodasi madh etilgan. Umrining oxirgi daqiqalarida ham ruhiyati va jasorati so'nmagani Abdulla Qahhorning va uni chorak asr boshida ko'tarib, cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatgan, quvonch-u dardini bo'lishgan eng aziz va qadrli hamdami Kibriyo opaning ham ko'ngillaridan balki hikoya qahramoni Masturaning umidbaxsh so'zlari o'tgan bo'lsa, ehtimol: "Men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki "rozilik tilashgani hali erta", dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo'q, timsoli yo'q zo'r umid bilan qaragani deb bilaman".

Afsuski, o'lim-haq. Shafqatsiz o'lim Kibriyo opaning ulug' adibga bo'lgan ulkan mehr-muhabbati, cheksiz sadoqat va iltijolarini ham pisand qilmaydi. Abdulla Qahhorning vafoti xalqimiz, adabiyot va ma'naviyatimiz uchun ham, barcha yaqinlari va ayniqsa, Kibriyo opa uchun g'oyat og'ir yo'qotish bo'ldi. Bu musibat Kibriyo opa hayoti va taqdirida qanchalik og'ir asorat qoldirgani va ularga qanday bardoshi yetganini keyinchalik shunday eslaydi: "Ochig'i, men ustoz vafotidan keyin uzoq

yashamasam kerak, deb o'ylagandim. Biroq Lev Tolstoy aytganiday, har qanday qayg'u ham jarohatga o'xshar ekan; jarohat asta-sekin bitganidek, qayg'u ham, dog'i qolsa-da, vaqt o'tishi bilan eskirar ekan. Bu yorug' olamda xalq mehri, tasallisi, yor-u do'stlarning daldasi, qolaversa, ustozdek so'z san'atkori bilan birga kechirgan umrimning nurli xotiralari meni shu yoshgacha olib keldi. Qalbim to'rida saqlangan ana shu xotiralarni odamlarga aytib berish, vaqti kelib ularni qog'ozga tushirish uchun ham yashashim kerak, deb o'ylar edim".[07;125]

XULOSA

Kibriyo opaning orzulari ijobat bo'lib, muxlislar uchun tabarruk qadamjoga aylangan muqaddas dargoh- Abdulla Qahhor uy-muzeyida bir necha yillar ustoz chirog'ini yoqib, shukronalik blan yashash va ijod etish nasib etdi. Kibriyo opa niyat qilganiday, qolgan umrini ham Abdulla Qahhorga- ustozning ushalmagan orzu- armonlari va vasiyatlarini ro'yobga chiqarishga va uning asarlarini to'plab, xalqqa va minglab o'quvchilariga yetkazishdek xayrli ishlarga bag'ishlaydi. Jumladan, Kibriyo Qahhorovanning 1987-yili yozilgan va 2007, 2017 va 2024-yili to'ldirilib, qayta chop etilgan "Chorak asr hamnafas" asari nafaqat qahhorshunoslikda, balki xalqimizning ma'naviy va adabiy hayotida ham quvonchli bir voqea bo'ldi deyish mumkin. Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov muxtasar so'zboshisida yozganidek, nafaqat adabiyot muxlislari, balki butun xalqimiz tomonidan sevib o'qib kelinayotgan bu nurli xotiralar Abdulla Qahhordek zabardast adib hayoti va ijodining maktab darsliklarida ham yoritilmagan muhim tomonlarini, ayniqsa, yozuvchining betakror shaxsini va ko'plab asarlarining yaratilish tarixini o'rganishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Ustozning barhayot ruhi va u kishidan qolgan zarif xotiralarni bir soniya bo'lsin unutmagan Kibriyo opaning yelib-yugurishi bilan amalga oshirilgan va o'zbek kitobxonlari bilan birga dunyoning ko'plab millatlari ham bahramand bo'lib kelayotgan Abdulla Qahhorning rus tilidagi ikki jildli va o'zbek tilidagi besh jildlik asarlarining nashr etilishi ham tahsinga loyiqdir. Bu asarlarni to'plab, nashrga tayyorlash sertashvish va zahmatli yumush ekanligini Kibriyo opaning nashriyotlarga, tarjimonu muharrirlarga, qolaversa, men kabi yosh qahhorshun oslarga yo'llagan ko'plab xat va yozishmalaridan ham tasavvur etsa bo'ladi. Alohida mehr-e'tibor va kuyunchaklik bilan bitilgan bu xatlarda, Abdulla Qahhor asarlarini mumkin qadar to'liq va tezroq hamda benuqson nashr ettirish va ularni keng jamoatchilikka taqdim etishdek ezgu maqsad va niyat ustuvor edi. Mustaqillik yillari yanada mukammal tarzda qayta nashr etilgan bu asarlarni yana qancha yosh avlodlar o'qib- o'rganib, o'zlarining ma'naviyati, tili va madaniyatini boyitishiga va Abdulla Qahhor bilan Kibriyo opadek takrorlanmas siymolarning ruhlarini shod etishlariga ishonchimiz komil.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. 1- jild. Qissalar..T. 2015;
2. 2-jild. Sarob. 420 bet. Yangi asr avlodi. T., 2016.
3. Erkin Vohidov. Qarzdorlik. Iztirob. Toshkent, 1992, 239-b.
4. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar, 6-tom,470-b.
5. Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. Akademnashr. T., 2017,
6. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar, 364-365-b.
7. Qahhorova Kibriyo. Chorak asr hamnafas. Toshkent. 2024..
8. Ozod Sharafiddinov. Chinorlar dan biri.- Ijodni anglash baxti. T.2004,
9. Umarali Normatov. Mahorat sirlari. T.1968,
10. Dilmurod Quronov. Ilhom bilan yozilgan asar.-Adabiyotimiz faxri. T.2007, 201-b
11. Hamidulla Boltaboev. Teranlik.- Adabiyotimiz faxri. 202-b.
12. M.Prishvin. Sobr.soch.v 6 tomax.T.4.M.,1957, str.479.
13. L.N. Tolstoy. O literature. M. 1955, s.21.
14. K.Paustovskiy. Rasskazi. Ocherki. Stati. M.,"Xudoj.literatura". 1972, s.388. (tarjima-bizniki.U.Q.)